

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligining birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning
2024 — 2026-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha
MA'LUMOT**

T/r	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-yil Prognoz	shu jumladan,	1-yarim yillik reja ijrosi	shu jumladan,
				1-yarim yillik prognozi		2-chorak ijrosi
1	14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	mlrd. so'm	11,4	5,7	4,2	2,02
	Strategik maqsad: Davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko'chmas mulki obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali Davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda Davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish.					
Yakuniy natija ko'rsatkichi						
2	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko'chmas mulki obyektlari soni	dona	165	68	659	551
3	Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar soni (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESD) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv qoidalari, komplayens xizmati, korporativ boshqaruv tizimini baholash)	dona	30	12	12	7
4	Davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini ijaraga berish	ming kv.m	3 980	2 786	4 374	1 326
5	Davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'larni davlat budjetiga o'tkazish (korxonalar, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo'lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni)	mlrd. so'm	10 000	2 400	2 846	2 683,6
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi						
6	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni	dona	55	23	50	23
7	Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari soni	dona	110	45	609	528

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarning 2024 — 2026-yillar uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining 2024-yilning birinchi yarim yillik ijrosi yuzasidan
HISOBOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-dekabrda PQ – 422-son qarori bilan Birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarning 2024– 2026-yillar uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlar tasdiqlangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi 4-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budget mablag‘larini taqsimlovchilarning budget dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risida nizom qabul qilingan.

Unda **Strategik maqsad** sifatida Davlat ishtirokidagi korxonalarini hamda davlat ko‘chmas mulki obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali Davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda Davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur maqsadlar uchun yakuniy ko‘rsatkich sifatida 2024-yilda Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko‘chmas mulki obyektlari sonini **165 ta**ga yetkazish, shundan bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi tariqasida 2024-yil uchun:

a) savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni 55 dona;

b) Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko‘chmas mulk obyektlari soni 110 dona nazarda tutilgan.

Yuqorida qayd etilgan qarorlar va belgilangan indikatorlar ijrosini so‘zsiz ta‘minlash maqsadida Davlat agentligining **2024-yil 12-yanvardagi 13- va 14-son buyruqlari** tasdiqlanib, ijrosi Davlat agentligining tarkibiy bo‘linma rahbarlarining shaxsiy nazoratiga olingan.

Indikatorlarning baholash har chorak yakuni bo‘yicha **Ichki audit xizmati** tomonidan amalga oshirilmoqda va natijalari boyicha ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasini va Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritib borilmoqda.

Belgilangan maqsadli indikatorlarning barchasi so‘zsiz ijrosi ta‘minlanmoqda. Xususan:

a) savdolarga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) sonini 55 ta, savdolarga chiqariladigan davlat va

davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari soni 110 taga yetkazish bo'yicha:

2024-yil birinchi yarim yillik yakuniga ko'ra, Davaktiv agentligi tomonidan umumiy qiymati **1,5 trln.so'm** bo'lgan **23 ta** davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) hamda **659 ta** davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari savdolarga chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi PQ-162-son qaroriga asosan 1 028 ta davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari hamda 247 ta davlat ishtirokidagi korxonalarining tarkibidagi tashkilotlarning aksiya paketlari (ulushlari) ommaviy savdolar orqali sotilishi belgilab berildi.

Mazkur qaror 2024-yil uchun indikatorlar tasdiqlangandan so'ng qabul qilingan bo'lib, xususiylashtiriladigan davlat ko'chmas mulk obyektlari va aksiya paketlari (ulushlari) soni indikator ko'rsatkichining rejaga nisbatan ortig'i bilan bajarilishiga turtki bo'ldi

b) Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar sonini (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv qoidalari, komplayens xizmati, korporativ boshqaruv tizimini baholash) 30 taga yetkazish bo'yicha:

Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 3-bandiga muvofiq, barcha davlat ishtirokidagi korxonalar uchun yangilangan **Korporativ boshqaruv qoidalari** ishlab chiqish bo'yicha, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug'i bilan davlat ishtirokidagi korxonalar uchun **korporativ boshqaruv qoidalari (yangi tahrirda), axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati, qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati** kabi qoidalar ishlab chiqilgan.

2024-yil 30-iyun sanasiga ko'ra, **davlat ishtirokidagi korxonalaridan 12 tasida** ("Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Navoiyazot" AJ, "O'zdonmahsulot" AJ, "Yo'lqurilish" AJ, "O'zbekekpertiza" AJ, Biznesni rivojlantirish banki, "Toshshahartransxizmat" AJ, "Trest 12" AJ, "UzGasTrade" AJ, "O'zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasi" AJ, Xalq banki va "Yo'lreftrans" AJ) korporativ boshqaruv qoidalariga (yangi tahrirda) rioya etish majburiyati yo'lga qo'yilgan.

d) Davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini ijaraga berishda 3,98 mln.kv.m ga yetkazish bo'yicha:

2024-yil 1-iyul holatiga, respublika bo'yicha davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha umumiy qiymati **364 mlrd. so'mlik 20 885 ta** (maydoni **4,4 mln.kv.m**) ijara shartnomalari tuzilgan.

e) Davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lardan 10 trln.so'm pul mablag'larini respublika budjetiga o'tkazish (korxonalar,

xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo‘lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni) bo‘yicha:

2024-yil 1-iyul holatiga, davlat aktivlari sotilishi hamda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida realizatsiya qilinishi natijasida **1 537,9 mlrd. so‘m** kelib tushgan, shundan:

523,4 mlrd. so‘m – davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko‘chmas mulki obyektlari realizatsiyasidan;

157,8 mlrd. so‘m – tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishdan;

21,2 mlrd. so‘m – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga doimiy foydalanish (egalik qilish), ijara va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo‘yicha;

9,2 mlrd. so‘m – yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqini realizatsiya qilishdan kelib tushgan.

Joriy yilning I yarim yillik mobaynida O‘zbekiston Respublikasi **davlat budjetiga** – **2 846 mlrd. so‘m**, shundan:

2 403,9 mlrd. so‘m – O‘zbekiston Respublikasi **respublika budjetiga**;

39,7 mlrd. so‘m – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-apreldagi 225-F/8-son farmoyishiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining **Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga** (*mazkur mablag‘lar Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi hisobotlarida respublika budjetiga o‘tkazilgan mablag‘lar sifatida aks ettirilishi belgilangan*);

Yer uchastkalarini sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan **mahalliy budjetlarga 272 mlrd.so‘m**;

“Coscom” MChJga **130,3 mlrd.so‘m** (*ushbu mablag‘ Jamiyat tomonidan respublika budjetiga o‘tkazilgan*).

f) Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga budjetdan ajratilgan 11,4 mlrd.so‘mlik mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi bo‘yicha:

2024-yil II chorak yakuniga ko‘ra, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi ta‘minlanishi uchun **2,02 mlrd. so‘mlik** mablag‘lar sarflandi.